



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 190 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari .....	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri .....	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality .....	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari .....	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni .....	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish .....	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari .....	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) .....	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish .....	111
<i>Tursunova Surayo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili .....	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatleri (Learning outcomes) asosida .....	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari .....	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish .....	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi .....	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdamovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli .....	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni .....	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ .....	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish .....	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari .....	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati .....	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	



# TALABALARDA KOGNITIV-PRAGMATIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MAZMUNI

To'rabekova Aziza Mirzabek qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti v.b.dotsenti,  
 pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biri sifatida yoritilgan. Tadqiqotda pragmatika va kognitiv yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi, bilish faoliyati jarayonida lisoniy birliklar hamda lisoniy belgilarining funksional ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, matnning informativligi, kommunikativ mazmun va pragmatik ta'sirning pedagogik jarayondagi o'rni ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada xorijiy hamda respublika olimlarining mavzuga oid nazariy-metodik qarashlari tahlil qilinib, ularga muallifning subyektiv munosabati bildirilgan. O'rganilgan nazariy manbalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetentligini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar takomillashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, kompetensiya, kognitiv, bilish faoliyati, lisoniy birliklar, lisoniy belgi, matn, ma'lumot informativligi, yondashuv.

**Abstract:** This article highlights that improving the methodology for developing the cognitive-pragmatic competence of future primary school teachers is one of the urgent issues facing the modern education system. The study analyzes the interrelation between pragmatics and cognitive approaches, as well as the functional significance of linguistic units and linguistic signs in the process of cognitive activity. In addition, the role of text informativeness, communicative meaning, and pragmatic influence in the pedagogical process is scientifically substantiated. The article also examines the theoretical and methodological views of foreign and national scholars on the topic and presents the author's subjective attitude toward these approaches. Based on the analyzed theoretical sources, methodological approaches to the development of cognitive-pragmatic competence among future primary school teachers were improved.

**Key words:** pragmatics, competence, cognitive, cognitive activity, linguistic units, linguistic sign, text, informativeness of information, approach.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается, что совершенствование методики развития когнитивно-прагматической компетентности будущих учителей начальных классов является одной из актуальных задач современной системы образования. В исследовании анализируется взаимосвязь прагматического и когнитивного подходов, а также функциональная значимость языковых единиц и языковых знаков в процессе познавательной деятельности. Кроме того, научно обосновывается роль информативности текста, коммуникативного содержания и прагматического воздействия в педагогическом процессе. В статье рассматриваются теоретико-методические взгляды зарубежных и отечественных ученых по данной проблеме, а также выражается субъективное отношение автора к представленным подходам. На основе изученных теоретических источников усовершенствованы методические подходы к развитию когнитивно-прагматической компетентности будущих учителей начальных классов.

**Ключевые слова:** прагматика, компетентность, когнитивный, познавательная деятельность, языковые единицы, языковой знак, текст, информативность информации, подход.

## KIRISH

Har qanday davlatning taraqqiy qilishi uchun ilm-fan va ta'limning rivoji muhim funksiyalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalar huquqiy-me'yoriy hujjatlar mazmunida ifoda qilingan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun

davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"<sup>[1, 146]</sup>, degan fikrlari orqali yoshlarimizni bundanda yuksak cho'qqilarga erishishlari uchun ta'lim sohasidagi o'qituvchilarga ko'plab vazifalar belgilab berilgan.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv-pragmatik kompetentligini yuqori darajada rivojlantirish professor-o'qituvchilar oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Shu nuqtai nazardan biz, avvalo, pragmatik va kognitiv tushunchalarining lug'aviy va konseptual mohiyatiga, kompetentlik talablariga, ularning shaxsiy sifatleri to'plami tahliliga e'tibor qaratdik.

"Pragmatika" (yunoncha pragma - ish harakat) aslida falsafiy tushuncha bo'lib, bu haqidagi qarashlar Suqrot yashagan davrlardan oldin ham bo'lgan, keyinchalik pragmatika bilan bog'liq fikr va ma'lumotlarni J. Lakk, E. Kant kabi faylasuflar Aristotel asoslaridan o'zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri va uning targ'iboti XX asrning 20-30-yillariga to'g'ri keladi.

Falsafiy pragmatizmga oid qarashlar lingvistikada paydo bo'lishida Ch. Pirsning hissasi katta. Ch. Pirs ishlab chiqqan falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotik belgining (jumladan, lisoniy belgining ham) ma'no-mazmuni ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog'liq holda o'rganishdir<sup>[4, 37-38]</sup>.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pragmatik ko'nikmalari bu yillar davomida ular tomonidan to'plangan, saralabgan, yig'ilgan va tahlilga tortilgan bilimlar majmuasi bo'lib, unda ma'lumotlar va axborotlar uning mahsuli sifatida takomillashib boradi.

Ch.P.Pirsning ta'kidlashicha, "lisoniy birliklarning ma'lum nutqiy sharoitda muloqotni ta'minlash maqsadida qo'llanishi aynan pragmatiklikning tadqiq obyektiga kiradi. Shu bilan birga, pragmatika tushunchasi zahirida belgilar turishi til falsafasiga oid ishlarda ham aytib o'tilgan"<sup>[13, 352]</sup>.

Umuman olganda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pragmatik ko'nikmalar nutq sharoitida va muloqot jarayonida lisoniy birliklarni qay darajada qo'llaganligi bilan izohlanadi. Binobarin, pragmatik ko'nikma bu jarayonda dinamik ko'rsatkichga ega bo'lganligi sinovdan o'tadi.

K.Qosimova va bir qator olimlar tomonidan tuzilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida quyidagi tamoyil mazmunida kognitiv-pragmatik mazmun o'z ifodasini topgan: "Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyilida so'zni, morfemani, o'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash mohiyati va bu tamoyilga amal qilishning tilshunoslik bo'limlarining o'zaro uyg'unligi qayd etilgan"<sup>[3]</sup>.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axborotlar bilan ishlash pragmatik kompetensiyada sifat tamoyili alohida o'rin tutadi. Bunda o'quvchilar ma'lumotlarning haqqoniyligiga erishish bilan bog'liq layoqatga ega bo'lishlari diqqat markaziga qo'yiladi<sup>[5]</sup>.

Taniqli metodist olim, professor D.Yuldashevaning e'tiroficha, "Kognitiv (ingl.: cognition - bilishga oid, idrokiy) ta'lim o'quvchini izlanishga, qiyoslashga, xulosa chiqarishga va zarurini tanlashga yo'naltiradi. Demak, reproduktiv ta'lim bilim bersa, kognitiv ta'lim bilim olishga undaydi, bilim olish yovllarini o'rgatadi, usullarini tavsiya etadi - o'quvchi qo'liga bilim kalitini tutqazadi. Chunki bilim cheksiz, uning barchasini o'quvchiga o'rgatib bo'lmaydi"<sup>[6, 121]</sup>.

O'rganilgan nazariy ma'lumotlar tahlili va xulosalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pragmatik ko'nikmalar takomili muloqot jarayonida aniqlanadi. Bunda esa kognitivlik, kommunikativlik, integrativlik malakalari boyigan bo'lishi nazarda tutiladi. Shuningdek, pragmatik ko'nikmalar uzluksiz davomiy bo'lib, unga interaktivlik ta'siri kuchayib boradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv-pragmatik kompetentligini rivojlantirishda ma'lumotlar informativligi talabi o'z o'rniga ega. Bu bilimlar egallash uchun ta'sir qiladi. Shu o'rinda V.S. Grigorevaning fikri ahamiyatga molik: "Ma'lumot informativligining talabi va sharti uning yangiligi, dolzarbligi, adekvatligi bo'lib, u so'z, gap, murakkab sintaktik birlikda va butun kontekst doirasida namoyon bo'ladi"<sup>[9, 68]</sup>.

Yana bir jihat ayonki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pragmatik kompetentligini rivojlantirishda kontekstning o'rni diqqatga sazovor. Sababi bu kompetentlik zahirida matn vositasidagi bilimlar mujassamlashtiriladi. Qilingan tahlillar sintezlashadi hamda faol amaliy ko'nikmaga aylanib boradi. Albatta, matnda ifodalangan ma'lumotlarni lisoniy nuqtai nazardan talqin etadigan bo'lsak, matn bu - informatsion birlikdir. Shunday ekan, matn tushunchasi keng ma'noda qabul qilinishi zarur, ya'ni "matn" nafaqat badiiy shakllangan asarga, shuningdek, uning qismlariga nisbatan ham tadbiiq qilish ham mumkin<sup>[10, 187]</sup>.

"Kognitiv" tushunchasi "bilish", "bilish faoliyati" bilan birga qo'llaniladi. Kognitiv kompetentlikning zaruratini asoslashdan avval "bilish" tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.



Bilish - bu obyektiv borliq tavsifining ongdagi ifodasidir. U his-tuyg'ular (boshqa odam ruhiyatidagi ishlarni xis qilish)da, fikrlar (fikrlash)da, til (interpretasiya)da va xatti-harakat (maqsadga erishish bo'yicha harakatlar) da namoyon bo'ladi<sup>[10, 187]</sup>.

Boshqa tomondan, bilish jarayoni - bu narsa-hodisalar haqida haqiqiy va ular haqida oddiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadini aks ettiradigan inson intellektual faoliyati jarayoni. Shuning uchun jarayonning o'zi insondagi bilimlar va ularning tayanchidan foydalanishni o'zida aks ettiradi<sup>[15, 37-38]</sup>.

Agar umumiy tarzda qaraydigan bo'lsak, bilish - mazmunida yangisini ishlab chiqish uchun mavjud bilimlardan foydalana olish aks etadigan ma'naviy faoliyat.

"Bilish" kategoriyasi ham milliy va xorijlik olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan<sup>[8, 25; 14, 67]</sup>. Psixologik adabiyotlarda bilish bevosita faoliyat kategoriyasi bilan birga qo'llaniladi. Dastlab amaliy faoliyatning alohida bir tomoni sifatida paydo bo'lgan bilish tushunchasi faoliyatning alohida turiga aylandi - bilish faoliyati. Bilish faoliyatini chuqurroq tushunish uchun "faoliyat" tushunchasining mohiyati va funksional-struktural tavsifini aniqlashtirish lozim. Zamonaviy ilm-fanda inson faoliyatini tavsiflaydigan ko'plab yondashuvlar mavjud. Ana shunday konsepsiyalardan biri faoliyatga yo'naltirilgan nazariyadir.

A.Leontev faoliyat nazariyasining quyidagi asosiy qoidalarini ishlab chiqqan:

- 1) faoliyat, eng avvalo subyektga va faoliyat turiga munosabatni aks ettiradi;
- 2) subyekt rivojining asosiy kanali - interiorizatsiya, ya'ni tashqi moddiy-hissiy faoliyat shaklini ichki asosga o'tkazish;
- 3) faoliyat oddiy tarkibiy obyektlar bilan emas, unga ta'sir ko'rsatadigan ma'lum bir ijtimoiy usullarda ifoda etiladigan madaniyat predmet orqali amalga oshadi, mazkur usul predmetli faoliyatni amalga oshirishda har doim qayta takrorlanadi;
- 4) faoliyat hamma vaqt maqsadga yo'naltirilgan bo'lib: o'zining samarasini beradi<sup>[11, 46]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik nuqtai nazardan bilish faolligi asosiy funksiyalarga ko'ra, ikki turga ajratiladi: adaptiv va produktiv. Faollikning adaptiv turi layoqatni hosil qiladi, produktiv esa, bevosita moslashuv uchun zarur bo'lmagan turli psixik o'zgarishlarning yuzaga kelishi va shakllanishining asosini tashkil etadi<sup>[12]</sup>.

Pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tadqiq etish asosida L.Bektursinova bilish faoliyatining uchta darajasini ajratib ko'rsatadi:

- reproduktiv (namuna, tanish vaziyatlar asosida o'quv topshiriqlarini bajarish);
- variativ (algoritmash, variativlikka asoslangan topshiriqlarni bajarish);
- ijodiy (tadqiqotchilik, ijodiy topshiriqlarni bajarishga doir mustaqil o'quv faoliyati)<sup>[2, 114]</sup>.

Tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan tasnifning birinchi va ikkinchi darajalari bilishning adaptiv, uchinchi esa, produktiv turiga taallukli ekanligini alohida qayd etib o'tish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan nazariy va metodik adabiyotlarga asoslanib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion metodlardan o'quv jarayonida keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi va ular quyidagi omillar bilan o'zaro uyg'unlikni namoyon qiladi:

- talabalarning kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish;
- o'quv-tarbiya jarayonining faollanishiga hamda ta'lim samaradorligini oshishiga;
- axborotni turli shaklda (ovoz, matn, video, grafika, animatsiyalar yordamida) berilishi talabalarning bilishiga qiziqishlarini orttirishiga, yuqori darajadagi ko'rgazmalik talabalarda mavzuning uzoq vaqt xotirada saqlanishini ta'minlashi;
- tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan o'qitishni amalga oshirishga imkon berishi bilan alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini pedagogik ta'lim jarayonlariga joriy etish talablarning:

- ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati;

- maqbul qaror qabul qilish malakasi;
- kommunikativ kompetentlik;
- estetik kompetentlik;
- kasbiy kompetentlik;
- axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalari, ya'ni bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari asosida ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishish yo'lida didaktik vazifalarni bajarishlari uchun talab etiladigan quyidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lishlari lozim:

- axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilish tamoyillarini bilish;
- kompyuter va kommunikatsiya vositalari, ularning xarakteristikalarini bilish;
- ta'lim jarayoni va ilmiy izlanishlarida Internetdan foydalanish;
- ta'lim jarayonida kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasini bilish;
- dasturiy ta'minotning asosiy turlarini bilish va ulardan foydalanish;
- fanlardan maxsus taqdimotlar va elektron resurslar tayyorlash vositalaridan foydalanish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan dvom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 146-b.
2. Bektursinova L.X. Pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. - Nukus, 2019. - 114-b.
3. K. Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi - T.: "NOSHIR", - 2009.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
5. Umarova Y. Til ta'limida matn tahlili orqali o'quvchilarda kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. - Namangan, 2020.
6. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik.-Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.
7. Валгина Н.С. Теория текста. Учебное пособие. - М.: Логос, 2003.
8. Гальперин П.Я. психология как объективная наука: Избр. психол. тр. / под. ред. А. И. Подольского; - Москва: Моск. психол.-соц. ин-тЖ Воронеж: Ин-т практ. психологии, МОДЭК, 1998.
9. Григорьева В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмalingвистический и когнитивный аспекты. - Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2007. - 68 с.
10. Канке В.А. Философия: Учебник для вузов. - М.: Логос, 2001.
11. Леонтьев А.А. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). - М.: Смысл, 2001.
12. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении / А.М. Матюшкин. - М.: Издательство: Директмедиа Паблишинг, 2008.
13. Пирс Ч.П. Начальная прагматизма / Перевод а английского , предисловие В.В.Кирюшенко, - СПб.: Лаборатория метафизических исследований философского факультета СПбГУ; Алетейя, 2000.
14. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2013.
15. Философия: Учебник для вузов / Под. ред. Л.А.Никитич. - М.Ж ЮНИТА - ДАНА, 2000.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.